

**“MAKTABGACHA TA'LIM
– MAKTAB – OLIY TA'LIM”
KONSEPSIYASI: MUAMMO,
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NAFOSAT TARBIYASINI BERISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Nasimova Nasiba Qurbon qizi

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Abdurahmonova Aziza

Buxoro davlat universiteti 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nafosat tarbiyasi berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib olib borilayotgan tizimli ishlar yoritib berilgan.

Аннотация: В данной статье освещается планомерная работа, проводимая в дошкольных учреждениях с применением сложных педагогических технологий.

Annotatsiya: This article highlights the systematic work carried out in preschool institutions using complex pedagogical technologies.

Kalit so'zlar – Nafosat tarbiyasi, pedagogik texnologiya, amaliyot.

Respublikamizda o'zluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta'lim tashkilotlariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, o'zluksiz ta'lim bosqichlarining samarali ishlashi ma'lum darajada maktabgacha ta'lim sifatiga bog'liq bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo'ladi. Bunga to'g'ri mazmun va yo'nalish berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir. Maktabgacha ta'lim o'zluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Madaniy va gigiena qobiliyatlari xulq-atvor madaniyatining muhim qismidir. Tozalik, yo'zni, tana, sochni, kiyimni va poyabzalni toza saqlash nafaqat gigiena talablari, balki inson munosabatlari me'yorlari bilan ham belgilanadi. Bolalar bu qoidalarga muntazam rioya qilsalar, boshqalarga hurmat ko'rsatadilar va o'zlarini qarashga, tashqi ko'rinishiga, harakatlariga, odatda, boshqalar tomonidan ma'qullanmasliklarini bilmasliklari haqida tushuncha bo'ladi. Bolalardagi shaxsiy va ijtimoiy gigienik ko'nikmalarini oshirish ularning sog'lig'ini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi va kundalik hayotda, jamoat joylarida to'g'ri xatti-harakatlarga yordam beradi. Nihoyat, nafaqat ularning sog'lig'i, balki boshqa bolalar va kattalarning sog'lig'i, bolalarning zarur gigienik qoidalar va xatti-normalar bilimlari va bajarishiga bog'liq. Bolalar bilan kundalik ishlash jarayonida shaxsiy gigiena qoidalarini hayotga tatbiq etish tabiiy bo'lib qolishi va ularning gigiena malakasi doimo yosh bilan yaxshilanishi uchun harakat qilish kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim –tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, o'zluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Nafosat tarbiyasi barcha yoshdagi kishilarga bab-barobar zarur. Ammo butun tarbiya tizimida, amalda isbotlanganidek, nafosat tarbiyasini singdirishni insonning bolalik davridan boshlash nixoyatda muxim, bu davr inson xayotida fe'l-atvor, irodaning, did, go'zallik tuyg'usi va xayotiy tushunchaning paydo bo'lishi va shakllanishi davridir. Bolalikda aql-farosat, axloqiy ko'nikmalarni tarbiyalash bilan bir qatorda, ularda chiroyli, nafis, go'zal narsalardan zavq ola bilishni, go'zallikni dag'allikdan, qo'pollikdan tez ajrata olish

qobiliyatini tarbiyalashimiz kerak. «Assalomu alaykum»dan boshlab, chexra tabassumi, kattalar oldida bosh egib turish, xar bir nasixati uchun minnatdorchilik bildirish, ketishga ruxsat so‘rash – bular birinchi o‘rindagi talablarga kiradi. Ayniqsa, So‘zlash odobiga jiddiy e‘tibor berish darkor. So‘zlaganda tinglayotgan kishi ko‘ziga qarab turish, so‘zlab turib uyoq-buyoqqa alanglash yoki teskari qarab to‘ng‘illash odobsizlik ekanligini yaxshi anglab yetish, og‘izdagi luqmani yutgandan keyin oxista gap boshlash, shoshilmay, dona-dona qilib, maqsadni aniq, dangal, ravshan, eshitarli ovoz bilan tushuntirish kerakligi o‘rgatiladi. Bular – odob go‘zalligidir.

Nafosat tarbiyasi orqali o‘z-o‘zini boshqarish shakllanadi. Bu o‘z-o‘ziga asta-sekin talabchanlikni keltirib chiqaradi. O‘z-o‘zini tergash, o‘zini mustaqil, ongli, oqilona boshqarish, o‘z xulq-atvori. Xattixarakteratiga baxo bera bilish ko‘nikmalarini egallash demakdir. Odob – odamning jamoat, el-yurt orasida o‘zini tutish, boshqalar bilan qay yo‘sin muomala qilish, o‘z turmushi, maishati va bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-xarakatlari qanday bo‘lishi lozim va ma‘qul ekanligi xususida baxs etadi. Anikrogi, axloq kishining ichki olami, e‘tikodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo‘lsa, odob shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Axloq kishidan xar xil xolatlarida qanday yo‘l tutish kerakligidan yaxshi uylab, eng maqsadga muvofiq xarakterat qilishni talab etsa, odob o‘z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya‘ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini takozo qiladi. Xar bir odam xususida, odatda, uning faoliyatiga, qanday ish bilan shugullanishiga, bu faoliyati va ishi axloq talablariga, turmush qoidalariga, jumladan, davlat qonunlariga muvofiq yoki xilof ekanligiga asoslanib muayyan fikr yuritiladi. Ma‘lumki, bola layoqatga mos xolda o‘stirish uchun mexnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mexnatsevarlik va muttasil o‘tirib ishlash kabi fazilatlaridir. Garchan inson kamolatiga ta‘sir etadigan omillar bir qancha bo‘lsa ham lekin, maxsus tarbiya tashkilotlarida tarbiyachining raxbarligida amalga oshiriladigan milliy tarbiya jarayoni yetakchi xisoblanadi.

Umuman, pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etadi. Raxbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta‘sir etishi mumkin

Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo‘lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyat o‘yin, mehnat, o‘qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shaxs ulg‘aya borgan sari uning faoliyati xam mazmunan, xam shaklan o‘zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari xam o‘rganib boradi. Shu sababli bola xayotida o‘yin, o‘quvchi xayotida o‘qish, kattalar xayotida mexnat faoliyatlari kata axamiyatga egadir. Shaxs qaysi yoshda bo‘lishidan qat‘iy nazar, ularning rivojlanishida mexnat faoliyatining axamiyati katadir. Ayniqsa, mexnat insonning xam jismoniy, xam ma‘naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mexnat orqali shaxsning axloqiy sifatlar tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas‘uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Bulardan tashqari shaxsni kamolga yetishda uning barkamol inson bo‘lib yetishishida nafosat tarbiyasi, axloq-odob tarbiyasi, ekologik tarbiya, jismoniy tarbiyalarning o‘rni va roli beqiyosdir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, Насиба Курбон Қизи Насимова, and Наргиза Супхоновна Ҳақимова. "Арт-педагогика для дошкольников." *Scientific progress* 2.7 (2021): 1201-1205.
2. Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Use of Innovative Methods in Speeching Classes in Preschool Educational Organizations. *International Journal of Culture and Modernity* ISSN 2697-2131, Volume 11 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>.
3. Nasimova Nasiba Qurbon qizi. Methods of Musical Education and Upbringing of Preschool Children. *European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE)* Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612. *European Journal of Innovation in Nonformal Education* www.innovatus.es